

Moviy osmon uzra hilpilla, bayrog‘im!

(Sahna bayram mavzusiga mos ravishda bezatilgan. Mavzuga oid lozunglar ilingan. O‘quvchilar va o‘qituvchi bayramona kayfiyatda)

*O‘quvchilar harbiy Maratning “**Hilpira bayrog‘im**” musiqa sadosi ostida qo‘llarida bayroqchalar ko‘tarib kirib kelishadi.*

O‘qituvchi tadbirga kelgan mehmonlarni tabriklab, tadbirni boshlashga ruxsat beradi.

1-boshlovchi: - Assalomu alaykum aziz mehmonlar, ustozlar va murabbiylar. Milliy faxrimiz va g‘ururimiz bo‘lgan davlat bayrog‘i qabul qilingan sana munosabati bilan o‘tkazilayotgantadbirimizga xush kelibsiz!

2-boshlovchi: - Vatanning ramzlari ko‘p. yurt deganda har bir insonning ko‘z oldiga turli manzaralar namoyon bo‘ladi.

3-boshlovchi: - Kimdir ona qishlog‘ini eslaydi, yana kimningdir yodiga ulug‘vor tog‘lar-u gavjum shaharlar tushadi.

1-boshlovchi: - Vatanning umuminsoniyat qabul qilgan shunday ramzlari borki, u har bir davlatning o‘zligini anglatadi. Shulardan biri va eng muhimi bu

Hamma: BAYROG‘IMIZDIR

2-boshlovchi: Bayroq nima?

Hamma: Yurtim osmonida fusunkor bezak.

3-boshlovchi: Bayroq nima?

Hamma: Istiqlolim belgisi, iftixorim!

1-boshlovchi: Bayroq nima?

Hamma: Millatimning yashayotgan udumlari!

2-boshlovchi: Bayroq nima?

Hamma: Yo‘lchi yulduz, kuch va adolat timsoli!

RAQS (Bayroq)

O‘quvchi: Bayroq tashkilot yoki biror davlatga tegishli bo‘lishi mumkin. Bular orasida millat uchun eng muhimi, uning mustaqilligini va xalqaro darajadagi hurmatga egaligini bildiruvchi bayroq – davlat bayrog‘i.

O‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i Respublikamiz Oliy Kengashining navbatdan tashqari VII sessiyasida 1991-yil 18-noyabrda tasdiqlangan.

O‘quvchi: Va shu kuni Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi qonunga imzo chekdi.

O‘quvchi: ushbu qonun 13 moddadan iborat bo‘lib, uning 3- moddasida shunday deyiladi:

O‘quvchi: O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro munosabatlada O‘zbekiston Respublikasining timsoli bo‘ladi.

O‘quvchi: 4-moddada esa “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i – bayroqning butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy rang, oq rang va to‘q yashil rangli to‘rtburchak shaklidagi matodir”, deyiladi.

O‘quvchi: 7-moddada ta’kidlanganidek, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i bilan bir qatorda xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bayroqlari ko‘tarilganda , O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xalqaro huquq normalariga va diplomatik protocol qoidalariga muvofiq ko‘tariladi”.

O‘quvchi: “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bayroqlaribilan bir xil balandlikda joylashtirilishi hamda bir xil o‘lchamga ega bo‘lishi kerak”

O‘quvchi: Davlatchiligimiz tarixining qaysi davrini olib qaramaylik, bayroq ajdodlarimiz uchun ozodlik, kuch-qudrat, jasorat va g‘alaba timsoli bo‘lgan.

O‘quvchi:

O, mening muqaddas bayrog‘im,
Ko‘nglimning, baxtimning qayrog‘i.
Tinmagay mavjlanib tursang sen,
Yuragim – bulbulim sayrog‘im.

O‘quvchi:

Sendagi moviylik – tiriklik,
Ko‘klarday, suvlarday tiniqlik.
So‘nmagay mavjlanib tursang sen,
Ortgaydir qalbimda yiriklik.

O‘quvchi:

Oq ranging – niyatim oqligi,
Qutlashda quyoshday toqligi.
Bilingay mavjlanib tursang sen,
O‘ylarim, xayolim pokligi.

O‘quvchi:

Bayrog‘im sendagi yashillik –
Ko‘karish, yuksalish, yaxshilik.
Ko‘ringay, mavjlanib tursang sen,
Ishlashim ter bosib tikka-tik.

O‘quvchi:

Sendagi chziqlar qizil – ol –
Hayotiy kuchimga bir misol.
Hilpirab, mavjlanib tursang sen,
Bor bashar anglagay bemalol.

O‘quvchi:

Ustingda porlagan yarimoy,

Ko'rsatar an'anang qanday boy.
Erkimning ramzidir bu yana,
Parpirab, hurmatga ochar yo'l.

O'quvchi:

Sendagi o'n ikki yulduzda –
Xalqdagi quyoshli solnoma.
Beruniy avlodi millatning,
Kimligin bilmoqqa yodnoma.

O'quvchi:

Yellar-la hilpilla, bayrog'im,
Viqor-la silkilla, bayrog'im!
Qulama, yiqilma, egilma,
Olamga qut ula, bayrog'im!

SAHNAVIY KO'RINISH

O'qituvchi: - Qani, aziz bolajonlar, bugungi bayram munosabati bilan O'zbekiston bayrog'i tasvirini rangli qog'ozlar bilan tayyorlangchi.

(O'quvchilar rangli qog'ozlarni tayyorlab, ularni ko'chma doskaga yopishtirishadi. Har bir rangni ilayotganda tilak bildirishadi.)

O'qituvchi: Har bir rangni ilayotganlaringizda tilak bildirishingizni taklif qilaman.

Moviy rang Olamda tinchlik bo'lsin!

Qizil rang: Osmonda quyosh kulsin!

Oq rang: Yuksak zafarlar quchsin!

Yashil rang: Buyuk yurt yashnab tursin!

Oymomo:

O'y sursalar o'ylariga sirdoshman,
Yo'l yursalar, yonlarida yo'ldoshman.
Tinch tunlarni tinch kunlarga ulayman,
Vatan nomin olam aro so'ylayman.

(Bir o'quvchi yig'lab turadi)

O'qituvchi: - Ha, bolajonim, shunday yaxshi kunlarda sen nega yig'layapsan?

O'quvchi: - Bayrog'imiz uchun tayyorlagan yulduzchalar yo'qolib qolibdi.

O'qituvchi: - Mayli, sen xafa bo'lma, bizning "Mitti yulduzchalar" nomli do'stlarimiz bor, hozir ularni chaqiramiz, senga yordam berishadi.

(12 nafar o'quvchilar "Tantana" guruhi ijrosidagi "Yulduzchalar" qo'shig'i ijro etishadi. Ishtirokchilar yasalgan bayoqqa bittadan yulduzcha yopishtirishadi.)

Raq (Yulduzchalar)

O'quvchi: Davlatimiz bayrog'i – o'tmish, bugun va kelajagimizning yorqin timsoli

O'quvchi: Qonunda belgilanganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda yashaydigan boshqa shaxslar bayrog'imizni hurmat qilishlari shart.

O'quvchi: Zero, unda ruhiyatimiz, g'ururimiz va iftixorimiz, Vatanimiz va xalqimizga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatimiz, kelajakka ishonchimiz mujassamdir.

O'quvchi: Shu o'rinda sizlarga yana bir ma'lumotni aytib o'tsak. 2018-yilda poytaxtimizning "Xalqlar do'stligi" saroyi oldida 65 metr balandlikdagi O'zbekiston milliy bayrog'i o'rnatildi.

O'quvchi: Bayroqning kattaligi enig 20 metr, uzunligi 10 metrli tashkil qilib, u mamlakatimiz hududidagi eng bayland bayroqdir.

O'quvchi:

Moviy, oqu yashil rang
O'zbekiston bayrog'i.
Ko'zni oladi, qarang –
Hilpirab turgan chog'i.

O'quvchi:

Moviy rang - mangu osmon
Obihayot ramzidir.
Ezgulikka posbon
Chin e'tiqod ramzidir.

O'quvchi:

Oq rangi – beg'uborlik,
Poklikni anglatadi.
Tong nuriday bedorlik,
Soflikni anglatadi.

O'quvchi:

Yashil rang – yangilanish,
Tabiatning timsoli,
Navqironlik, ulg'ayish,
Barkamollik misoli.

O'quvchi:

Qizil chiziq – qonimiz,
Quadratimizdan darak,
Yarim oy – imonimiz
Va diyonat mushtarak.

O'quvchi:

O'n ikki porloq yulduz
O'n ikki burj demakdir,
Ajdodlarga sodiqmiz,
Dildagi burch, demakdir.

O'quvchi:

Bayrog'imiz bosh uzra
Hilpiraydi, porlaydi.
Bizni ulug' ishlarga
Baxt-iqbolga chorlaydi.

SAHNAVIY KO'RINISH

(Davraga sayyoh kirib keladi va o'quvchilardan bayram haqida so'raydi)

Sayyoh: - Hello dear children, what holiday are you celebrating?

1-o'quvchi: - We are celebrating our country's flag.

Sayyoh: - How many colours in your flag?

2-o'quvchi: - There are four colours in the flag. They are blue, red, green and white.

Sayyoh: - What do the moon and stars symbolize?

3-o'quvchi: - They represent peace and independence.

Sayyoh: - Thank you. Do you know a poem about flag?

4-o'quvchi: - Yes please, listen.

5-o'quvchi:

Blue, white and green

And has a red tie.
That's why beautiful,
The flag of Uzbekistan

6-o'quvchi:

Hoist my flag,
Hoist proudly.
For my free people
Give freedom.

Raqs (inglizcha)

O'quvchi:

Moviy, yashil, oq,
Qo'limda bayroq,
Yuguraman shod,
Vatanda ozod!

O'quvchi:

Shamolda g'ir-g'ir,
Hilpiraydi hur.
Dilim shoshadi,
Zavqim toshadi.

O'quvchi:

Ona tabiat
Va jo'shqin hayot,
Musaffo osmon,
Tomirimda qon.

O'quvchi:

Pok orzularim,
Jam bo'lgan bari.
Boshla mayog'im –
Vatan bayrog'i!

1-boshlovchi: - Dunyoda millat va elatlar, xalqlar va davlatlar ko'p, lekin O'zbekiston bitta. Uning bayrog'i ham yagona.

2-boshlovchi: - Vatanni, bayrog'imizni, tinchlik va do'stlikni milliy qadriyatlarimizni ulug' bilib, vatan uchun xizmat qilishga astoidil bel bog'laylik.

3-boshlovchi: - bayrog'imiz doim moviy osmon uzra hilpillab, viqol-la silkillab tursin!

1-boshlovchi: - Bugungi bayramimiz o'z nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun rahmat!

(O'zbek istrada yulduzlari ijrosida "Qo'lingda imkon" qo'shig'i sadosi ostida tadbirga yakun yasaladi)

Navoiy shahar
10-umumiy o'rta ta'lim maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Babamuratova Dilfuzaning
**“Moviy osmon uzra hilpilla,
bayrog'im!”**
mavzusida tarbiyaviy soat



ISHLANMASI

